O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV
NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
INSON RESURSLARI va
MAHALLA TARAQQIYOTINI
BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № БД-60420200 2024 yil "10" 14	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

Konstitutsiyaviy huquq

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	420000 – Huquq
Ta'lim yo'nalishi:	60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi

]

SAMARQAND-2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
KONS'H1110	2024-2025	I	3
KONS'H1210	2024-2025	II	7
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4

I.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Konstitutsiyaviy huquq	36 84	54 126	90 210

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o'qitishdan maqsad** – O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, uning mazmun-mohiyatini yoritish, qonunlarga hurmat uyg'otish, huquqiy ongni oshirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda huquqiy davlatni bunyod etishda faol ishtirok qiladigan huquqiy bilimli komil insonni tarbiyalashdir. **Fanning vazifasi** – Konstitutsiyaviy qoidalar mazmunini o'rgatish va hayotda ularga amal qilib yashash zarurligini anglatish. Konstitusiyaviy huquqni o'rganish talabalarda mustaqil siyosiy-huquqiy tafakkurni rivojlantirish va dunyodagi murakkab siyosiy vaziyatni anglashga hamda undagi ijobiy yoki salbiy holatlarni baholay olishga, shuningdek hozirgi zamon dunyo hamjamiyatida kechayotgan integrasion jarayonlarning rivojlanish istiqbollarini o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Konstitutsiyaviy huquqqa kirish: predmet, maqsad va vazifalari.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyati, unda mustahkamlangan normalar va ularning amaliyotda qo'llanish jarayoni fan predmetini tashkil etadi. Konstitutsiyani o'rganishga ilmiy yondashuv, nazariy va amaliy tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, o'zaro bog'liqlilik va aloqadorlik, siyosiy va huquqiy hurfikrlilik, huquqiy dalillardan foydalanish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish.
M2	**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'limlari va boblari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maqsadi, prinsiplari, asosiy qoidalari mazmun va mohiyati negizini belgilovchi ulug'vor g'oyalar uning Muqaddimasida to'la bayon etilgan. Konstitutsiya muqaddimasi juda ixcham va yuksak saviyali. Muqaddimada O'zbekistonning rivojlanish, yangilanish va taraqqiyot

	yo'li hamda yangi jamiyat va davlat qurilishining yo'nalishlari belgilab beriladi. O'zbekiston Konstitutsiyasi tuzilishi mazmuni — fuqarolar o'rtasida totuvlik, milliy va ijtimoiy hamjihatlik, shaxs erkinligi va saylov erkinligi, siyosiy barqarorlik, farovonlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlatning inson va fuqarolar oldidagi o'z burchini bajarishga erishishga yo'naltirilgan. Shu bilan bir qatorda, Asosiy Qonunimiz mazmunida tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi umum insoniy g'oyalar ham mujassamdir.
M3	**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari davlat suverenitetini, xalq hokimiyatchiligi hamda inson huquqlarini tan olish va ta'minlashga qaratilgan. Konstitutsiyaning birinchi bo'limi suveren O'zbekiston davlatining mohiyatini belgilab beradi. Bu mohiyatni davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi va tashqi siyosat prinsiplari tashkil etadi.
M4	**O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.** Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, qonun chiqaruvchi hokimiyat Konstitutsiyada asosiy huquq, erkinlik va burchlarni mustahkamlaydi, qonun va qonun osti hujjatlarida esa, ular asosida vujudga keladigan hosila huquq, erkinlik va burchlarni belgilash bilan birga ular mazmunini keng yoritish imkonini beradi. Inson huquq va erkinliklari har bir shaxsga taalluqli bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklari esa faqat o'sha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslargagina tegishlidir.
M5	**O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.** Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, qonun chiqaruvchi hokimiyat Konstitutsiyada asosiy huquq, erkinlik va burchlarni mustahkamlaydi, qonun va qonun osti hujjatlarida esa, ular asosida vujudga keladigan hosila huquq, erkinlik va burchlarni belgilash bilan birga ular mazmunini keng yoritish imkonini beradi. Inson huquq va erkinliklari har bir shaxsga taalluqli bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklari esa faqat o'sha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslargagina tegishlidir.
M6	**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy huquq va erkinliklar.** Yashash huquqi insonning ajralmas huquqidir. Shaxsning daxlsizlik huquqining himoyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aybsizlik prezumpsiyasi. Shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqining asoslari. Mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlar, avvalo, inson huquqlarini va manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgani, aynan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida kechayotgani bilan alohida ahamiyatga ega. Zero, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aholining barcha toifalari – yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan fuqarolar, o'qituvchilar va hatto jinoyat sodir etgan shaxslarning ham huquq va manfaatlari aks etgan. Ayniqsa, o'lim jazosi taqiqlanishi konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonparvarlikning muhim ifodasidir.
M7	**O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida siyosiy huquqlar** O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda ishtirok etishining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Jamoatchilik

	nazorati tushunchasi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi. Murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmi. Bu normalar o'z navbatida jamiyatimizda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarda, Saylov kodeksi hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanganligi ularning jamiyat rivojidagi ishtirokida muhim ahamiyat kâsb etadi.
M8	**Gender tenglikning konstitutsiyaviy asoslari.** Yashash, erkinlik, xususiy mulkka egalik va daxlsizlik huquqi. Fikr va vijdon erkinligi. Uy-joy daxlsizligi. Shaxsning huquq va erkinliklarini konstitusiyaviy huquqiy kafolatlanishi. Davlat va jamiyat boshqaruvida qatnashish huquqi. Saylov huquqi: aktiv, passiv saylov huquqi. Uyushish huquqi. Manifestasiya va yig'ilish o'tkazish erkinligi. Axborot erkinligi. Vatan himoyasi huquq va majburiyat sifatida. Jabr-sitamga qarshi kurashish huquqi. Xususiy mulk huquqi va merosga ega bo'lish. Xo'jalik yuritishda tashabbus erkinligi, mehnat, mashg'ulot va kasb tanlash huquqi: korxona boshqaruvida ishtirok etish huquqi. Sof atrof-muhitga ega bo'lish va uni muhofaza qilish huquqi. Ijtimoiy taminot olish va sog'liqni saqlash huquqi. Uy-joyga ega bo'lish huquqi. Talim olish huquqi. Madaniy boyliklardan foydalanish huquqi. Ijod erkinligi.
M9	. **Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlar.**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mulkchilik va uni himoya qilish asoslari. Adolatli mehnat sharoitlarida ishlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Shaxsning uy-joyga egalik huquqi va uning himoyasi. Shaxsning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi va uning himoyasi. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasida ekologik huquqlar. Shaxsning ta'lim olish va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqi. Xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qolga kiritgan mol mulkka egalik qilish ,undan foydalanish va uni tasarruf etish hisoblanadi .Adolatli mehnat ishlash,shaxsning uy joyga egalik huquqi,shaxsning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi va uning himoyasi.Shu bilan Konstitutsiyada berilgan ekologik huquqlar.Shaxsning talim olish huquqi va ilmiy faoliyat bilan shugullanish huquqi.
M10	**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari.** Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdagi huquqiy kafolatlari. Huquq va erkinliklarni himoya qilish usullari va ularning mohiyati. Davlat ijtimoiy himoyasiga muhtoj shaxslarning huquqlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida gender tengligi. "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi". Inson — davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim. Biz barpo etayotgan yangi O'zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati hamma narsadan ustundir".
M11	**O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida fuqarolarning burchlari** Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish majburiyati. Fuqarolarning tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini muhofaza qilish majburiyatining qonuniy asoslari. Fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda

	bo'lish majburiyati. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi majburiyati. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish davlat fuqarolarining eng asosiy burchidir. Bu prinsip har bir fuqaroga taalluqlidir hamda mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan majburiyatlardan bo'yin tovlashga hech kim haqli emasligini anglatadi.
M12	**Jamiyatning iqtisodiy negizlari.** Xususiy mulk daxlsizligi muhofazasi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mulkdorning huquqiy maqomi. Investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashning huquqiy kafolatlari. Tabiiy resurslari muhofazasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi.
M13	**Fuqarolik jamiyati institutlari** Jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining qonuniy muhofazasi. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining institutlaridan biri sifatida. Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish taqiqlanishining huquqiy asoslari. Diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligi kafolatlari Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi.
M14	**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila, bolalar va yoshlar.** Oila davlat muhofazasidadir. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning o'z farzandlari va bir-birlari oldidagi majburiyatlari. Yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar himoyasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquq erkinliklarining kafolatlari. Oila davlat muhofazasida.Davlat oilaning tolaqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa shart sharoitlar yaratib beradi. Bolaning huquqlari,erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taminlash hamda himoya qilish, eng yaxshi shart sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy, axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart sharoit yaratadi.
M15	**Ommaviy axborot vositalari.** Ommaviy axborot vositalari jamoat birlashmasidir. Ommaviy axborot vositalari erkinligi qonuniy kafolatlari. Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashishganlikning huquqiy oqibatlari. Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini,ularning axborot izlash,olish,undan foydalanish va uni tarqatishga bolgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.
M16	**O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilishi.** O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini

	o'zgartirish vakolati. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. O'zbekiston Respublikasining mamuriy hududiy tuzilishi sohasidagi asosiy prinsiplardan iborat. Bular hududning yaxlitligi va bolinmasligi, qonuniylik, davlat boshqaruvining samaradorligi va mamuriy hududiy birliklarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi.
M17	**Qoraqalpog'iston Respublikasi.** Qoraqalpogiston Respublikasining huquqiy maqomi.Qoraqalpogiston Respublikasining suvereniteti Ozbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.Qoraqalpogiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Ozbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpogiston hududida ham majburiyligi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega.
M18	**O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga va Senati a'zolariga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari. Qonunchilik tashabbusi huquqi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi spikeri va uning o'rinbosarlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat Raisi va uning o'rinbosarlari. Qonun chiqarish jarayoni tushunchasi va uning bosqichlari. Qonunchilik tashabbusi, taklif yoki qonun loyihasini kiritish. Qonun loyihasiga qo'shimchalar, o'zgartirishlar yoki tuzatishlar kiritish tartibi. Qonun loyihasini qabul qilish va ovoz berish turlari, boshqa palatalar tomonidan qonun loyihasini ko'rib chiqish va qonun chiqarish jarayonida palatalararo munosabatlar tizimi. Sanksiya berish, promulgasiya, qonunni elon qilish. Qonunning kuchga kirishi.
M19	**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O'zbekiston Respublikasining Prezidentining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsi daxlsizligi kafolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi holatlari Davlat boshlig'i tushunchasi. Prezident. Monarx. Kollegial organ. Davlat boshlig'ining funksiyasi va vakolatlari. Davlat boshlig'ining davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rni va uning davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabati. Davlat boshlig'ining davlat boshqaruvidagi vakolatlari. Davlat boshlig'ining qonun chiqarish jarayonida ishtiroki. Qonunchilik tashabbusi, parlamentga noma yuborish (AQSh). Veto huquqi va uning turlari. Davlat boshlig'ining xalqaro munosabatlar, xavfsizlik va mudofaa sohalaridagi vakolatlari. Davlat boshlig'ining favqulodda

	vakolatlari. Prezident. Prezidentning huquqiy holati. Prezident saylovining asosiy ko'rinishlari.
M20	**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vakolatlari. Ishonchsizlik votumi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari va vazirlardan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kirishi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshirishi belgilangan.
M21	**Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.** Davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomi. Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlari. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining lavozimga tayinlanishi va ozod etilishi. Fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir. Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi.
M22	**Saylov tizimi.** Fuqarolarning saylash va saylanish huquqi konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasida saylov o'tkazilishi tartibi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi vakolatlari. Saylovning ijtimoiy vazifasi va tushunchasi. Saylov turlari: to'g'ri va egri; umumiy va qisman; milliy va mahalliy: navbatdagi va navbatdan tashqari. Saylovlarning davriyligi. Saylash huquqi: aktiv va passiv. Saylov huquqi tamoyillari tushunchasi va uning ahamiyati. Umumiy saylov huquqi. Saylov senzi. Saylovlarda ixtiyoriy va majburiy ishtirok etish.
M23	**O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati.** Sud tizimi va uning faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huquqiy maqomi va uning vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi - sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi. Sudyalar mustaqilligi va daxlsizligi huquqi. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish tili. Sud hokimiyati. Sud hokimiyatining ijtimoiy vazifasi, qonuniylik va adolatni taminlash. Sud hokimiyatining tuzilishi: umumiy va maxsus yurisdiksiyali sudlar. Favqulodda sudlar tuzilishining taqiqlanishi. Prokuror, tergovchi va sudyalarning huquqiy maqomi. Sudlov hokimiyatining shakllanish usullari. Sudning faqat qonunga bo'ysunishi, sud mustaqilligining kafolatlari. Sud hokimiyatining oliy organlari. Sudlarning tashkil etilish tamoyillari. Sudlarning mustaqilligi (daxlsizligi). Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimi: anglosakson va romanogerman. Umumiy yurisdiksiyali sudlarning tuzilishi.
M24	**Advokatura.**

	Advokatura faoliyati yo'nalishlari. Advokatura faoliyati prinsiplari. Advokatning kasbiy faoliyati muhofazasi va daxlsizligi huquqi. O'zbekiston Respublikasi advokatura institutining kelib chiqish tarixi, mohiyati, vazifasi, huquqiy asoslari, bu sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning ahamiyati bilan tanishtirishdan iborat. Advokaturafani oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi huquqshunos mutaxassislarda advokatura instituti haqida, bu institutni boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan munosabati, ushbu munosabatlarni tartibga solishning huquqiy uslublari va shakllari to'risidagi barqaror dunyoqarashni shakllantirish, fuqarolarning himoyaga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlari, ushbu huquqni amalga oshirish kafolatlari, bu huquqlarning yuridik vositalar bilan himoya qilinishi to'g'risidagi huquqiy saviyani tarkib toptirishdan iborat.
M25	**Prokuratura organlari.** Prokuratura organlari faoliyatining yonalishlari,prokuratura organlari xodimlarining lavozimga tayinlashi va ozod qilinishi tartibi. Prokuratura organlarining asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga boysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Prokuratura organlarining faoliyati mamlakat hududida qonunning ustuvor bo'lishini, qonuniylikni ta'minlashni va uning barqaror bo'lishini, fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Prokuratura organlarining har bir xodimi Konstitutsiyamizda belgilab berilgan ustuvor tamoyil va qoidalarning to'liq ro'yobga chiqishi uchun hissa qo'shishni, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishni o'zining sharafli burchi deb biladi.
M26	**O'zbekiston respublikasida moliya, pul va bank tizimi.** O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti tarkibi. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish tartibi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishdagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi. O'zbekiston Respublikasining pul birligi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. Moliya tushunchasi va funksiyalari. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy tizimi, uning tarkibi. Davlatning moliyaviy faoliyati tushunchasi va uning elementlari. Davlat moliyaviy faoliyatining prinsiplari tushunchasi va tizimi. Moliyaviy faoliyatda qonuniylik prinsipi. Moliyaviy faoliyatda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni birligi prinsipining mazmuni va ahamiyati. Rejalashtirish prinsipi va uning moliyaviy faoliyatdagi roli. Moliyaviy faoliyatda oshkoralik tamoyili. Davlat moliyaviy faoliyati uslublari tushunchasi va tizimi: davlat pul mablag'larini tashkil etish uslublari; davlat pul mablag'larini taqsimlash va ulardan foydalanish uslublari.
M27	**Mudofaa va xavfsizlik.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy vazifalari. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish tartibi. "Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va

	barqarorlikni yanada mustahkamlash barcha yutuqlarimizning bosh garovidir. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi. Mudofaa deganda O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi. milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish, uning asosini yaratuvchi qonunlarni yaratish ishlari amalga oshirildi. Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo'lishiga, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning uyg'unlashgan tizimini yaratishga qaratildi.
M28	**Konstitutsiyani ozgartirish tartibi.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi. "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishdagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi.
M29	**Konstitutsiya va siyosiy hokimiyat** Konstitutsiya va siyosiy hukumatning huquqiy qiyofasi. Konstitutsiya – siyosiy tizimni modernizatsiya qilish asosi. Konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat. Zamonaviy parlamentarizm va ko'p partiyaviy tizimning qaror topishi. Fuqarolik jamiyatida siyosiy hokimiyat shu jumladan davlat hokimiyati huquq yordamida konstitutsiya shaklidagi qonunlar orqali rasmiylashtiriladi va me'yorlanadi.
M30	**Konstitutsiya va ma'naviat.** Konstitutsiyaning ma'naviy-axloqiy salohiyati. Konstitutsiya – yangi madaniy-huquqiy renessans poydevori. Konstitutsiyaviy-huquqiy mafkura: mohiyati va mazmuni. Konstitutsiya – ideal huquqiy xulq-atvor modeli. Konstitutsiya va shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi. Konstitutsiya insoniyat tafakkuri va ma'rifiy taraqqiyoti hamda huquqiy madaniyatining hosilasidir. Konstitutsiyani yaratishdan maqsad xalqimizning ijtimoiy turmushi, madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishdan iborat.
	III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**
S1	Konstitutsiyaviy huquqqa kirish: predmet, maqsad va vazifalari.
S2	Konstitutsiyaning yaratilishi va tarixiy bosqichlari.

S3	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi.
S4	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.
S5	Shaxsning huquqiy maqomi. Fuqarolik.
S6	Shaxsiy huquq va erkinliklar.
S7	Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar.
S8	Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar hamda burchlar.
S9	Gender tengligining konstitutsiyaviy asoslari.
S10	Jamiyatning iqtisodiy negizlari.
S11	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari.
S12	Fuqarolik jamiyati institutlari.
S13	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila, bolalar va yoshlar.
S14	Ommaviy axborot vositalari.
S15	O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilishi.
S16	Qoraqalpog'iston Respublikasi.
S17	O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi.
S18	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
S19	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
S20	Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.
S21	O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati.
S22	Prokuratura organlari.
S23	Saylov tizimi.
S24	Mudofaa va xavfsizlik.
S25	Advokatura.
S26	Moliya, pul va bank tizimi.
S27	Konstitutsiyani ozgartirish tartibi.

S28	Konstitutsiya va siyosat.
S29	Konstitutsiya va ma'naviat.
S30	Konstitutsiyaviy islohotlar.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Konstitutsiyaviy huquq" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	"Konstitutsiyaviy huquq" atamasining ma'nosi.
2.	Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatidagi tushunchasi.
3.	Shaxsning huquqiy holati.
4.	Shaxs huquqiy holatining konstitutsiyaviy asoslari.
5.	Siyosiy huquq va erkinliklar orqali fuqarolar imkoniyatlarni qo'lga kiritishi.
6.	Siyosiy huquqlar.
7.	Tashqi siyosat turlari.
8.	O'zbekiston xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti sifatida hisoblanishi.
9.	Fuqaroning shaxsiy huquqi.
10.	Fuqaroning shaxsiy erkinligi.
11.	Huquq va erkinliklarning kafolatlari.
12.	Huquq va erkinliklar kafolatlarining tizimi.
13.	Iqtisodiy va ijtimoiy huquqning zarurligi.
14.	Mulkdor bo'lish huquqi va uning O'zbekistonda o'rnatilishi.
15.	Davlat tuzilishi shakli.
16.	Davlat tuzilishining shakllari.
17.	Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi.
18.	O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari munosabatlarining asosi.
19.	Saylovlarning ahamiyati.
20.	Davlat organlarining saylov yo'li bilan tashkil qilinishi.
21.	Parlament davlat organi sifatida faoliyat yuritishi va uning vujudga kelish ahamiyati.
22.	O'zbekistonda parlamentning shakllanishi.
23.	Prezidentlik institute vujudga kelishining davlat qurilishidagi ahamiyati.
24.	O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining o'rnatilishi sabablari.
25.	Hukumatning hokimiyat tizimidagi o'rni.
26.	Hukumat mavqeiga ta'sir qiluvchi omillar.
27.	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining zarurligi.
28.	O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimining tashkil qilinishi.
29.	Sud hokimiyati.

30.	Sud hokimiyatining hokimiyat tizimidagi o'rni.
31.	Prokuratura.
32.	Prokuraturaning hokimiyat tizimi tarkibiga kirishi.
33.	Pespublikaning moliya tizimi.

"Konstitutsiyaviy huquq" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va Konstitutsiaydagi barcha bo'limlar ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Konstitutsiyaviy huquq" fanidan talabalar, Konstitusiya va qonunning ustunligi ahamiyati va ta'minlash tartibi, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining aosiy qoidalari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba " Konstitutsiyaviy huquq" fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi konstitusiyaviy tuzum prinsiplari davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitusiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosat va ularning konstitusiyaviy asoslari haqida bilimlarini shakllantirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. A.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYI, 2021 – 545 b.

2. A.2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi – T.: TDYI nashriyoti, 2012. – 649 b.
3. A.3. Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi // Darslik – T.: TDYuI nashriyoti, 2012. – 564 b.
4. A.4. Konstitusionnoye pravo. Uchebnik. Avtorskiy kollektiv – T.: TGYuU, 2018. – 565 s.
5. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik, Mualliflar jamoasi – T: TDYU, 2024. – 816 b.
6. Tolliboyeva M. O'quv qo'llanma: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiyasini o'rganish. Samarqand: SamDU 2023-236 b.
7. Inson huquqi. Rustambayev M.X. va boshq. Darslik. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2022. – 440 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston"nashriyoti, 2023.- 128 b.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Constitutional and administrative law / A. W. Bradley and K. D Ewing. 13th ed. 2003.

2. Erwin Chemerinsky. Constitutional Law: Principles and Policies. 4th Edition, May 25, 2011.

3. Allan Ides Christopher N. May Constitutional Law - Individual Rights. Fifth Edition 2012.

AXBOROT MANBALARI:

1. http://www.lex.uz
2. http://www.senat.uz
3. http://www.parliament.gov.uz
4. http://www.gov.uz
5. http://www.ziyonet.uz

7.	**Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **Sadikova Y.S.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Davlat huquqiy fanlar " kafedrasi mudiri, dotsent
9.	**Taqrizchilar:** **Qo'ldoshev M.** SamDU Yuridik fakulteti Davlat huquqiy fanlar kafedrasi dotsent (ichki) **Hamdamov Sh.** Advokatlar palatasi Samarqand viloyat hududiy boshqarma o'rinbosasi (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais **A.Sh. G'ulomov**

Kafedra mudiri: **Y.S.Sadikova**

Fakultet dekani: **R.I.Mirzayev**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU o'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A.S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti Davlat huquqiy fanlar kafedrasi mudiri Yo.Sadikova tomonidan tayyorlangan "Konstitutsiyaviy huquq " fanidan fan dasturiga

TAQRIZ

Konstitutsiyaviy huquq - asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi, huquq tizimining yetakchi sohasi. Qiyosiy Konstitutsiyaviy huquq normalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va hududiy tuzilishi, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan munosabatlari tartibini, fuqaro va shaxs huquq hamda erkinliklari amalga oshirilishining asosiy tamoyillarini, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi. Bir qancha mamlakatlarda (jumladan, O'zRda ham) ushbu huquqiy sohani belgilash uchun davlat huquqiy tushunchasi qo'llanadi.

Konstitutsiyaviy huquqning asosiy tamoyillari: boshqaruvning respublika shakli, inson va fuqarolar huquq hamda erkinliklarining ustunligi, hokimiyatlarning bo'linishi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini; inson va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklari, ularning kafolatlarini; ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini; saylov tizimini; hokimiyat tizimi va davlat organlari tizimini tashqil etish hamda faoliyatining asosiy tamoyillarini; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish asoslarini mustahkamlaydi. Konstitutsiyaviy huquq manbalari: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, xalqaro huquq normalari, Oliy vakillik, ijro etuvchi hokimiyat, mahalliy vakillik va konstitutsiyaviy sud hujjatlari va h.k.(hokazolar) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq manbalari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, mahalliy davlat hokimiyati normativ hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi va uning sub'yekti o'rtasidagi kelishuvlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari.

SamDU yuridik fakulteti "Davlat huquqiy fanlar" kafedrasi dosenti: **yu.f.n. Qo'ldashev M.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti Davlat huquqiy fanlar kafedrasi mudiri Yo.Sadikova tomonidan tayyorlangan "Konstitutsiyaviy huquq " fanidan fan dasturiga

TAQRIZ

Konstitutsiyaviy huquq - asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi, huquq tizimining yetakchi sohasi. Qiyosiy Konstitutsiyaviy huquq normalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va hududiy tuzilishi, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan munosabatlari tartibini, fuqaro va shaxs huquq hamda erkinliklari amalga oshirilishining asosiy tamoyillarini, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi. Bir qancha mamlakatlarda (jumladan, O'zRda ham) ushbu huquqiy sohani belgilash uchun davlat huquqiy tushunchasi qo'llanadi.

Konstitutsiyaviy huquqning asosiy tamoyillari: boshqaruvning respublika shakli, inson va fuqarolar huquq hamda erkinliklarining ustunligi, hokimiyatlarning bo'linishi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, inson va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklari, ularning kafolatlarini; ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini; saylov tizimini; hokimiyat tizimi va davlat organlari tizimini tashqil etish hamda faoliyatining asosiy tamoyillarini; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish asoslarini mustahkamlaydi. Konstitutsiyaviy huquq manbalari: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, xalqaro huquq normalari, Oliy vakillik, ijro etuvchi hokimiyat, mahalliy vakillik va konstitutsiyaviy sud hujjatlari va h.k.(hokazolar) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq manbalari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, mahalliy davlat hokimiyati normativ hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi va uning sub'yekti o'rtasidagi kelishuvlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari.

Advokatlar palatasi Samarqand viloyat hududiy boshqarma
boshlig'i o'rinbosari

Sh.Hamdamov